

MAKTABGACHA TA'LIM MAZMUNINI OPTIMALLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JIHATLARI

ПСИХОЛОГИЧЕСКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОПТИ- МИЗАЦИИ СОДЕРЖАНИЯ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL ASPECTS OF OPTIMIZING THE CONTENT OF PRESCHOOL EDUCATION

HAQQIYEVA FOTIMA OLIMJONOVNA
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'yin texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali innovatsion rivojlantiruvchi ta'lim muhitini tashkil qilishning maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv, ijtimoiy, jismoniy va emotsional rivojlanishiga kompleks ta'siri haqida so'z yuritilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari, ularning yoshga doir me'yorlari va rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar tahlili asosida maktabgacha ta'lim mazmunini optimallashtirishning psixologik-pedagogik jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, individual yondashuv, kognitiv rivojlanish, differensial yondashuv, kompetensiya, ta'lim mazmuni.

Аннотация. В статье рассматривается комплексное влияние организации инновационной развивающей образовательной среды посредством эффективного использования игровых технологий в дошкольном образовании на основе компетентностного подхода на когнитивное, социальное, физическое и эмоциональное развитие детей дошкольного возраста. На основе анализа специфики умственного развития детей дошкольного возраста, их возрастных норм и факторов, влияющих на развитие, анализируются психолого-педагогические аспекты оптимизации содержания дошкольного образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, индивидуальный подход, когнитивное развитие, дифференцированный подход, компетентность, содержание обучения.

Abstract. The article discusses the complex impact of organizing an innovative developmental educational environment through the effective use of game technologies in preschool education based on a competency-based approach on the cognitive, social, physical and emotional development of preschool children. Based on the analysis of the specific features of the mental development of preschool children, their age norms and factors affecting development, the psychological and pedagogical aspects of optimizing the content of preschool education are analyzed.

Keywords: preschool education, individual approach, cognitive development, differentiated approach, competence, educational content.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta’lim sohasiga oid farmoyish va qarorlari bolalarning kognitiv, ijtimoiy, jismoniy va emotsional rivojlanishiga kompleks yondashuv zarurligini belgilaydi. Maktabgacha ta’lim tizimi, bolalar uchun ta’lim jarayonining birinchi bosqichi bo‘lib, ularning aqliy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ta’limning uzluksiz ta’lim tizimida o‘ziga xos o‘rni bor, chunki har bir ta’lim bosqichi o‘rtasidagi bog‘lanish, ta’lim oluvchilarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Maktabgacha ta’limning asosiy maqsadi — bolalarni do‘stlik, mehr-oqibat, mustaqil fikrlash va jamoada ishlash kabi asosiy hayotiy ko‘nikmalarni o‘rgatishdan iboratdir. Maktabgacha ta’limning eng muhim xususiyatlaridan biri uning individual yondashuvga asoslanishidir. Har bir bolaga individual ravishda yondashish uning qobiliyatlari va ehtiyojlariga qarab ta’lim berish imkoniyatini yaratadi. Shunday qilib, maktabgacha ta’limda o‘rgatilgan asosiy ko‘nikmalar va bilimlar, bolalarning keyingi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyatli rivojlanishiga zamin yaratadi. Maktabgacha ta’lim — bolalar uchun ta’lim jarayonining boshida eng muhim bosqich bo‘lib, ularning shaxsiyatini shakllantirish, hissiy va aqliy rivojlanishini ta’minlashda alohida o‘ringa ega. Bu bosqichda bolalar o‘zlarini atrofdagi dunyo bilan tanishtirishadi, yangi bilimlarni o‘zlashtiradilar, ijtimoiy muloqotga kirishadilar va o‘zlarining hissiy holatlarini anglashni boshlaydilar. Shu bilan birga, bolalarning o‘yin orqali o‘rganishi, ularning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantiradi. Maktabgacha yosh davri (3 yoshdan 7 yoshgacha) inson psixik rivojlanishining eng muhim va jadallik bilan kechadigan bosqichlaridan biri hisoblanadi. Inson hayotidagi eng intensiv rivojlanish bosqichi bo‘lib, aynan shu davrda bolaning tafakkuri, nutqi, hissiyoti, ijtimoiy munosabatlari hamda bilish faoliyatining

asoslari shakllanadi. Bu davr shaxs shakllanishining poydevori qo‘yiladigan, kognitiv, emotsional-irodaviy va ijtimoiy sohalarda sifat jihatidan keskin o‘zgarishlar yuz beradigan noyob bosqichdir. Mazkur yosh davrida bolaning atrof-muhitni faol o‘rganishi, dunyoqarashining kengayishi va mustaqil harakatlanish imkoniyatlarining ortishi uning psixik jarayonlarining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Maktabgacha yosh davrida kognitiv strukturalarning asoslari vujudga keladi, bilishga nisbatan munosabat shakllanadi, aqliy faoliyatning asosiy usullari va strategiyalari o‘zlashtiriladi. Ayniqsa, idrok, xotira, tafakkur, tasavvur kabi kognitiv jarayonlar, shuningdek, nutq, hissiyotlar va iroda kabi shaxsiy sifatlar jadal sur‘atlarda takomillashadi. Maktabgacha ta’lim mazmunini optimallashtirish zamonaviy pedagogika va bolalar psixologiyasining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Shu sababli ta’lim mazmunini bolaning psixofiziologik xususiyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlariga mos ravishda tashkil etish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Har bir rivojlanish davrining o‘ziga xos xususiyatlari va chegaralari mavjud bo‘lib, ularni bolani kuzatish orqali kuzatish mumkin. Har bir psixologik yoshda o‘qitish va tarbiyalashning o‘ziga xos usullari va usullaridan foydalanish, shuningdek, bola bilan uning yoshga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqotni qurish zarur. Yoshga xos davrlar asosan shaxsiy va intellektual rivojlanishga qaratilgan, bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish hamda bolaning operatsion va texnik imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish bilan tavsiflangan shaxslararo muloqotning rivojlanishi bilan birga keladi [1; 200-b]. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonlari — diqqat, xotira, tafakkur va nutq faol ravishda shakllanadi. A.N. Leontevning fikricha, bolaning psixik rivojlanishida faoliyat yetakchi omil hisoblanadi va aynan o‘yin faoliyati maktabgacha yoshdagi

bolalar rivojlanishining asosiy mexanizmi sanaladi. N.Leontyev fikricha shaxs ikki marta tug‘iladi, shaxsning birinchi tug‘ulishi maktabgacha yosh davriga to‘g‘ri keladi. Bu hodisa insonning o‘z impulsiv xatti-harakatlarini ijtimoiy me‘yorlarga bo‘ysundirishga ilk bora urinishi, motivlar o‘rtasida ierarxik munosabatlarning tarkib topa boshlashi bilan bog‘liq bo‘ladi. A.N.Leontyev o‘z izlanishlarida faoliyatning bola taraqqiyotiga ta‘siri muammosini chuqur o‘rgangan. Tadqiqot natijasida faoliyat nazariyasi doirasida “yetakchi faoliyat” tushunchasi shakllandi. Yetakchi faoliyat deganda taraqqiotning muayyan davrida bola shaxsidagi asosiy psixologik o‘zgarishlarga sabab bo‘luvchi faoliyat tushuniladi. Maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat o‘yin faoliyatidir. Bir yosh davridan ikkinchisiga o‘tishda yetakchi faoliyat turi o‘zgaradi, bunda bola faoliyatida maqsadning motivga aylanishi, A.N.Leontyev ta‘biri bilan aytganda “motivning maqsadga ko‘chishi“ kuzatiladi. Yangi faoliyat turi yangi motivlar paydo bo‘lgach vujudga keladi [2;20-b]. Maktabgacha ta‘lim mazmunini optimallashtirishning yana bir muhim jihati o‘yin texnologiyalaridan samarali foydalanishdir. Psixolog olim D.B. Elkonin fikricha, o‘yin maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyat turi hisoblanadi va aynan o‘yin jarayonida bolaning psixik rivojlanishi faol amalga oshadi [3;47-bet]. O‘yin faoliyati bolaning bilish ehtiyojlarini qondiradi, ijtimoiy tajribasini boyitadi va emotsional rivojlanishini ta‘minlaydi. Ayniqsa, syujetli-rolli o‘yinlar bolaning ijtimoiylashuvida muhim vosita hisoblanadi. Bunday o‘yinlarda bolalar kattalar faoliyatini aks ettirish orqali jamiyatdagi munosabatlarni anglay boshlaydilar. Masalan, “shifokor va bemor”, “oila”, “do‘kon” kabi rolli o‘yinlar bolalarda muloqot madaniyati, hamkorlik va mas‘uliyat hissini rivojlantiradi. Shu bilan birga, o‘yin texnologiyalari bolaning diqqatini jamlash,

xotirasini mustahkamlash hamda nutq faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi. D.B. Elkonin tomonidan taklif qilingan yondashuv real hayot tajribasiga asoslangan empirik davrlashtirish va bolalarni o‘qitish va tarbiyalash uchun ideal sharoitlarda mumkin bo‘lgan nazariy davrlashtirish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalaydi. Bolalarning shaxsiy rivojlanishi kattalar o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlarni va ular namoyon qiladigan shaxsiy xususiyatlarni takrorlash va modellashtirish, shuningdek, rol o‘ynash o‘yinlari paytida boshqa bolalar bilan o‘zaro munosabatlar orqali sodir bo‘ladi.

Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bolalar asta-sekin o‘z tushunchalarini tadqiqot, tajriba va mulohaza orqali shakllantiradilar. J. Piage bolalar tafakkurining bosqichma-bosqich rivojlanishini ilmiy asoslab, maktabgacha yosh davrini intuitiv tafakkur shakllanishining muhim bosqichi sifatida tavsiflaydi. Maktabgacha ta‘lim mazmunini optimallashtirishning muhim yo‘nalishlaridan yana biri bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashdir. Zamonaviy psixologiyada emotsional intellekt bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim omil sifatida baholanadi. J. Piage bolalarning ijtimoiy tafakkuri va axloqiy qarashlari muloqot hamda hamkorlik faoliyati orqali shakllanishini asoslab bergan [4. 73-bet].

Har bir bolaning rivojlanish sur‘ati, qobiliyati, temperamenti va qiziqishlari turlicha bo‘ladi. Shu sababli barcha bolalarga bir xil pedagogik ta‘sir ko‘rsatish samarali natija bermaydi. L.S. Vigotskiy tomonidan ishlab chiqilgan “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko‘ra, bola kattalar yoki tengdoshlari yordamida mustaqil bajara olmaydigan faoliyatni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi [5; 244-bet]. Demak, pedagog bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olib, unga mos metod va vositalarni tanlashi zarur. Differensial yondashuv orqali bolalarning individual qobiliyatlari

rivojlantiriladi. Masalan, ayrim bolalarda nutq rivoji ustun bo'lsa, boshqalarida tasviriy yoki konstruktiv faoliyatga moyillik kuchli bo'lishi mumkin. Pedagog bunday xususiyatlarni inobatga olgan holda mashg'ulotlarni tashkil etsa, ta'lim samaradorligi oshadi. Shu bois ta'lim mazmunini optimallashtirish jarayonida bolalarning psixologik rivojlanish qonuniyatlariga tayangan holda yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'limda innovatsion pedagogik metodlar, texnologiyalar va metodikalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Zamonaviy ta'lim tizimi bolalarning nafaqat bilim olish, balki ijtimoiy moslashish, jamoada ishlash, muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishni maqsad qilib qo'ygan. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bu yondashuvlar, bolalar uchun yanada samarali ta'lim va rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi. Masalan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni (interaktiv o'yinlar, vizual va audiovizual materiallar) qo'llash bolalarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni ta'lim jarayoniga faol jalb etadi. Maktabgacha ta'lim va psixologik rivojlanish. Maktabgacha ta'limning psixologik jihatlari ham katta ahamiyatga ega. Bolalar psixologiyasini chuqur o'rganish, maktabgacha ta'limda ularga individual yondashish imkonini beradi. Bu yondashuv, bolalar psixologiyasiga mos tarzda, ularga shaxs sifatida o'sish va rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlarni taqdim etadi. Shuningdek, maktabgacha ta'limda bolalarning hissiy rivojlanishini ta'minlash, ular o'rtasida ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, o'z-o'zini anglash va hissiy intellektni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ushbu bosqichdagi ta'lim nafaqat bolalarning intellektual rivojlanishini ta'minlaydi, balki ularning ijtimoiy, hissiy va shaxsiy rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi. Maktabgacha ta'limning uzluksiz ta'lim tizimida tutgan o'rni bolalar

uchun mustahkam poydevor yaratadi, bu esa ularning keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli bo'lishiga zamin tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim bolalar shaxsining shakllanishida juda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim bolalar shaxsining shakllanishi va rivojlanishidagi eng muhim bosqichlardan biridir. Bu davrda olingan bilim va ko'nikmalar bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga, ularning ijtimoiy va shaxsiy hayotiga mustahkam poydevor yaratadi. Bolalarning psixologik rivojlanishini to'g'ri yo'naltirish uchun

individual yondashgan holda o'yin metodlari vositasida rivojlantiruvchi ta'lim muhitini tashkil qilish lozim.

Pedagogik nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim mazmunini optimallashtirishning asosiy yo'nalishi kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish bilan bog'liqdir. An'anaviy ta'lim tizimida asosan bolaga tayyor bilimlarni yetkazishga urg'u berilgan bo'lsa, zamonaviy kompetensiyaviy model bolaning amaliy faoliyatini rivojlantirishga qaratiladi. A.V. Xutorskoy kompetensiyani shaxsning muayyan faoliyat sohasida samarali ishlashiga imkon beruvchi bilim, ko'nikma va tajribalar majmui sifatida tavsiflaydi [6; 60-bet]. Shu nuqtai nazardan qaralganda, maktabgacha ta'limda kommunikativ, ijtimoiy, Shaxsiy ("Men" konsepsiyasini qurish) va bilish kompetensiyalarini rivojlantirish asosiy maqsadlardan biri bo'lishi kerak [7; 14-b].

Maktabgacha yosh davrida bolalarda empatiya, hissiyotlarni boshqarish, o'zaro munosabat o'rnatish va nizolarni hal qilish ko'nikmalari shakllanadi. Shu sababli ta'lim jarayonida emotsional qulay muhit yaratish, bolalarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish muhim hisoblanadi. Pedagogning ijobiy munosabati, bolalarga mehr bilan yondashishi ularning psixologik barqarorligini ta'minlaydi. Bugungi kunda multimedia vositalari, interaktiv metodlar, STEAM elementlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan

foydalanish maktabgacha ta'lim samaradorligini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, vizual materiallar, animatsiyalar va didaktik elektron o'yinlar bolalarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda murakkab tushunchalarni sodda shaklda o'zlashtirishga yordam beradi.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim

mazmunini optimallashtirish pedagogik va psixologik jihatdan asoslangan zamonaviy yondashuvlarni joriy etishni talab qiladi. Kompetensiyaviy yondashuv, o'yin texnologiyalari, individual ta'lim, ijtimoiy-emotsional rivojlantirish va innovatsion pedagogik texnologiyalar bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillar hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar :



1. Z. T. Alisherova Maktabgacha yosh davrida psixik rivojlanish xususiyatlari "Ilm-fan va innovatsiya" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2026-yil. 135-140-b.
2. Z. Nishanova, G. Alimova Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2006-yil. 152 bet
3. Д. Б. Эльконин. Детская психология: учеб. пособие для студ. высш. учеб. Заведений. Москва. 2007. 384 с
4. Piaget J. The Moral Judgment of the Child. – New York: Free Press, 1965. – 399 p.
5. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – Москва: Педагогика-Пресс, 1996. – 536 с.
6. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированного образования // Народное образование. – Москва, 2003. – №2. – С. 58–64.
7. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. Toshkent. 2022-y